

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMUTOVA AMINA RAXMETOVNA**

**QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV HISOBINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK: 657.4:658.2:69**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Economical sciences**

**Mamutova Amina Raxmetovna**

Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish..... 3

**Мамутова Амина Рахметовна**

Совершенствование управленческого учета в строительных  
организациях..... 29

**Mamutova Amina Rakhmetovna**

Improving management accounting in construction organizations..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMUTOVA AMINA RAXMETOVNA**

**QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV HISOBINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.2.PhD/Iqt3032 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdusalomova Nodira Baxodirovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Maqsudov Begmatjon Yuldashaliyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xalilov Sherzod Axmatovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "23" 12 soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1853 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "09" 12 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "09" 12 dagi 113 raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**E.V. Gafurov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

**S.K. Xudoyqulov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyoti sharoitida qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish nafaqat moliyaviy samaradorlikni oshirish, balki strategik qaror qabul qilishda aniq va vaqtidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali raqobatbardoshlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv hisobining takomillashtirilgan tizimi loyiha xarajatlarini nazorat qilish, resurslardan samarali foydalanish, qiymat injiniringi va risklar tahlilining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, qurilish sohasida yuqori kapital sarflari va uzoq muddatli sikllar mavjud bo'lganligi sababli, boshqaruv hisobining funksional yo'nalishlarini avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali loyihaviy menejmentni optimallashtirish mumkin bo'ladi. Shu tarzda, hisobot berishning aniqligi va tezkorligi ortib, xalqaro standartlarga moslashuv hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. Exploding Topics kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, "2027-yilda qurilish ma'lumotlarini modellashtrish bo'yicha global bozor hajmi o'rtacha yillik o'sish 16,3%, ya'ni 14,89 milliard dollarga yetadi. Transparency Market Research xalqaro tahliliy kompaniyasi tadqiqotiga ko'ra, qurilish robotlarining jahon bozori 2031-yilga borib 359 million dollarga yetadi"<sup>1</sup>. Bu esa, jahon iqtisodiyotida qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini tashkil qilishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi va xarajatlar hisobini takomillashtirish global o'zgarishlar sharoitida samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy nazoratni takomillashtirish, boshqaruv hisobini yaxshilash uchun texnologik innovatsiyalar, xarajatlarni boshqarish bo'yicha xalqaro amaliyot, jahon iqtisodiyotining qurilish xarajatlariga ta'siri, moddiy xarajatlarni hisobga olish muammolari, qurilishning turli bosqichlarida xarajatlarni hisobga olishning murakkabligi, qurilish materiallari va mehnat xarajatlaridagi noaniqlik va beqarorlik, buxgalteriya hisobi va hisobotining yagona tizimining yo'qligi, uzoq muddatli loyihalar uchun hisob-kitoblar va byudjetlashtirish, qurilish loyihalari bo'yicha hisobni tashkil etish muammolari bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Keyingi 7 yilda ushbu sohada salmoqli o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, qurilish xizmatlari hajmi 2 barobarga oshib, 2017-yilda 35 trln so'mlik qurilish xizmatlari amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 151 trln so'mni tashkil etdi. YaIMda qurilish xizmatlarining ulushi 6,4 foizdan 7,1 foizga o'sdi<sup>2</sup>. Ushbu sohada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tarkibida milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga tobora integratsiyalashuvi, global xavf-xatarlarning oshib borishi sharoitida xalqaro qurilish kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qurilish tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda

<sup>1</sup> <https://digital-build.ru/8-mirovyh-tendencziy-stroitelnoj-otrasli-2024-2027/>.

<sup>2</sup> <https://review.uz/oz/post/infografika-2017-2023-yillarda-o'zbekiston-qurilish-sohasining-rivojlanishi>

xarajatlar hisobini takomillashtirish, biznes-jarayonlari kesimida boshqaruv hisobining funksional obyektlarini asoslash, qurilish tashkilotlarining faoliyatini real baholash uchun javobgarlik markazlari bo'yicha ularni taqsimlash usullarini joriy etish, tannarxni hisobga olish tartibi ishlab chiqish, qurilish tashkilotlarida ichki boshqaruv hisobotini tuzish va shakllantirish modelini ishlab chiqish vazifalari mazkur muammolar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-son "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 5-fevraldagi PQ-4586-son "Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi VMQ-214-son "O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida", 2022-yil 20-apreldagi VMQ-200-son "Qurilish sohasiga oid yagona ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobining nazariy hamda uslubiy asoslari xorijlik olimlar K.Druri, B.Nidlz, X.Anderson, D.Kolduel, R.Garrison, E.Norin, P.Bryuer, S.T.Xorngren, S.M.Datar, M.V.Rajan, J.K.Shim, E.A.Antikson, M.A.Baxrushina, V.V.Bursev, A.D.Shermet, V.B.Ivashkevich, A.V.Ilina, T.Karpova, N.A.Ermakova, A.N.Shulekin, Y.V.Smernova, M.E.Borovskaya va O.V.Savostina va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Друри К. Управленческий и производственный учет / Учебный комплекс для студентов вузов; Пер. с англ. В.Н. Егорова. — 6-е изд. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2022. — 1423 с.; Нидлз Б. Принципы бухгалтерского учета [Текст] / Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д. Колдуэлл; Пер. с англ.; под ред. Я.В. Соколова. - М., 2-е изд.: Финансы и статистика, 2004. - 496 с.; Гаррисон Р., Норин Э., Брюэр П. Управленческий учет. СПб.: Питер, 2012. - 592 с. (с 38); Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: Managerial emphasis/ 14th edition. — Prentice Hall: New Jearsey, 2012. — 892 pages.; Shim J.K. Managerial Accounting. Paperback. 2nd edition. McGraw-Hill Education-Europe. 2011. p.384.; Аткинсон Э.А. Управленческий учет [Текст] / Э.А. Аткинсон, Р.Д. Банкер, Р. Каплан. Пер. с англ. — М.: Вильямс, 2016. - 880 с.; Ивашкевич В.Б. Управленческий учет и контроллинг результативности бизнеса: учебное пособие / В.Б. Ивашкевич, А.И. Шигаев. — Казань: Казан. ун-т, 2019. — 117 с. Бахрушина М.А. Управленческий учет в государственных (муниципальных) учреждениях: методология, организация и направления совершенствования. Монография / Под ред. д.э.н., проф. М.А. Вахрушиной. — М.: Научные технологии, 2015. — 268 с.; Бурцев В.В. Организация системы внутреннего контроля коммерческой организации. — М.: Экзамен, 2013. 197 с.; Шермет А. Д., Керимов В. Э. Уникальные методы управленческого учета: модель "Кайзен-костинг" // Аудит и финансовый анализ. — 2018. — № 1. — С. 303–310.; Ивашкевич В.Б. Бухгалтерский управленческий учет: Учебник /. - 3-е изд.,

Qurilishning iqtisodiy jihatlarini O'zbekistonlik olimlar K.B.Urazov, B.A.Iskandarov, M.M.Miraxmedov, I.X.Davletov va boshqalar mavzuga doir ba'zi jihatlarini yoritganlar<sup>4</sup>. Bu masala boshqaruv hisobi sohasida tadqiqot olib borgan olimlar A.A.Karimov, R.D.Do'smurodov, A.K.Ibragimov, B.A.Xasanov, N.B.Abdusalomova, M.Q.Pardayev, A.X.Pardayev, B.Y.Maxsudov, X.Saidakbarov va boshqalarning ilmiy ishlarida keng ko'lamda o'rganib chiqilgan<sup>5</sup>.

Mazkur tadqiqotlarda boshqaruv hisobining umum uslubiy asoslariga tayangan holda ayrim muammolar tashkiliy jihatlarini tadqiq qilingan. Zero, tadqiqotlarga ko'ra, boshqaruv hisobining nazariy muammolari masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni, uning amaliy jihatdan turli sohalarga mos kelishi hisoblanadi. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega mavzu hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 5-sonli "Qurilish tashkilotlarida axborot ta'minot jarayonlarini takomillashtirish" mavzusi-dagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobining maqsadi, vazifalari, o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

xarajatlar hisobining iqtisodiy mohiyati, xarajatlarning shakllanish tizimini tadqiq qilish;

qurilish tashkilotlarining o'ziga xos xususiyatlari asosida bilvosita xarajatlarni taqsimlash bo'yicha takliflar berish;

---

перераб. и доп. – М.: Магистр: НИЦ ИНФРА-М, 2015. – 448 с.; Ильина А. В. Управленческий учет: учеб. пособие / А. В. Ильина, Н. Н. Ильшева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с.; Карпова Т. Учет затрат и калькулирование себестоимости готовых объектов и отдельных циклов работ при долевом строительстве: монография. – М., 2018. — 276 с.; Шулекин Александр Николаевич. Развитие управленческого учета в организациях жилищного строительства в условиях институциональных изменений. Специальность: 08.00.12 – Бухгалтерский учет, статистика Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Новосибирск – 2022. – 188 с. Смирнова Ю.В. Совершенствование бухгалтерского управленческого учета в розничных торговых сетях. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2023. 223 с. М. Е. Боровская. Управленческий учет как элемент системы управления издержками лесохозяйственного производства. Труды БГТУ серия 5 № 2 2021. Савостина О.В. Развитие теоретико-методических основ анализа и операционного бюджетирования производственной деятельности промышленного предприятия. Дисс. канд. экон. наук. Екатеринбург, 2014. – 246 с.

<sup>4</sup> K.B.Urazov. Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari. O'quv qo'llanma. Sam-2007., B.A. Iskandarov. Qurilish korxonalari faoliyatini boshqarish. Journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57. VOLUME 2, ISSUE 2 (May) ISSN: 2181-3000. 2023 –y. M.M. Miraxmedov, X.I. Yusupov, I.M. Maxamatallyev, E.A. Shomirzayev, A.T. Ilyasov. Qurilish infrastrukturalari va ishlarini tashkil etish. Darslik. Toshkent – 2017., Davletov I.X. Qurilish iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TAQI, 2019. – 196 bet.

<sup>5</sup> Ибрагимов А.К., Хасанов Б.А., Ризаев Н.К. Амалий бошқарув ҳисоби. – Т.: Молия 2014 й. – 404 б.; Пардаев А.Х., Пардаева З.А. Бошқарув ҳисоби / Дарслик – Т.: «Тафаккур» нашриёти, 2014. – 396; Дусмуратов Р.Д. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. – Т.: Yangiul polygraph service. 2007 й. – 352 б.; Курбанов З.Н. Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари. Дис.икт.фан. д-ри. Тошкент.: БМА, 2006. 272 б.; Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси. Самарканд.2001 й; Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт. – Т.: Молия, 2003 й. – 248 б.; Махсудов Б.Ю. Бошқарув ҳисобида бюджетлаштириш методологиясини такомиллаштириш. Икт. фан. док. дисс. автореферати. – Т.: ТМИ, 2018; Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida byudjetlashtirish va ichki nazorat metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. diss. avtoreferati. – Т.: TMI, 2019; Saidakbarov X.A. Boshqaruv hisobi tizimida biznes-jarayonlari va ularni hisobi metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. diss. avtoreferati. – Т.: TDIU, 2024.

qurilish tashkilotlarida xarajatlarni boshqaruv hisobining kompleks modelini ishlab chiqish;

qurilish shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblarni hisobga olish metodologiyasini ishlab chiqish;

qurilish tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritishda biznes jarayonlarining taqdim etilgan boshqaruv hisobi va ichki hisobot tizimini ishlab chiqish;

boshqaruv tizimini integratsiya qilish orqali qurilish tashkilotlari uchun byudjetlashtirish metodikasini ishlab chiqish;

“investor – buyurtmachi – pudratchi – subpudratchi” munosabatlari zanjirida qurilish-montaj ishlarining tannarxini shakllantirish tartibini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi qurilish tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuyidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida taqqoslash, qiyosiy taqqoslash, kuzatuv, nazariy va amaliy o'rganish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy matematik tahlil, buxgalteriya hisobi usullari va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

qurilish tashkilotlari boshqaruv hisobi tizimini uning tarkibida an'anaviy tarzda foydalaniluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va korporativ omillar, biznesning barqarorligini va uning atrof-muhitga ta'sirini baholash usulini joriy qilish orqali takomillashtirilgan;

qurilish tashkilotlari faoliyatida yuzaga keluvchi bilvosita xarajatlarni turli bo'limlar yoki faoliyat toifalari bo'yicha taqsimlashda “Umumiy xarajatlar” schyoti bo'yicha kompaniyaning umumiy rentabelligiga bilvosita xarajatlarning ta'sirini baholash orqali ko'p bosqichli tahliliy hisob tizimini ishlab chiqish taklifi asoslangan;

qurilish tashkilotlarida xarajatlarni boshqaruv hisobining kompleks tartibi xarajatlarning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bo'linishi hamda qurilish loyihasining bosqichiga (rejalashtirish, loyihalash, qurish, ishga tushirish) muvofiq holda ularni batafsil taqsimlash asosida takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

qurilish tashkilotlarining boshqaruv hisobida obyektlarning hayot sikli xarajatlarini baholash konsepsiyasi tannarxni hisoblashda obyektни ekspluatatsiya qilish, uni eskirish va foydalanishdan chiqarish jarayonida foydalanish xarajatlarini ham hisobga olish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

taktik va strategik boshqaruv hisobining mazmuni, qurilish tashkilotlarini boshqarish tizimidagi o'rni va asosiy xususiyatlari ochib berilgan;

boshqaruv hisobi tizimini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilovchi bosh pudratchi qurilish ishlab chiqarishining tashkiliy-texnologik xususiyatlariga aniqlik kiritilgan;

puqratchi qurilish tashkilotlarida asosiy bo'lmagan faoliyat turlarini aniqlashga asoslangan qo'shimcha xarajatlarni hisobga olishning yangicha yondashuvi ishlab chiqilgan;

uchta asosiy bosqichdan iborat qurilish tashkilotning innovatsiyalari to'g'risida ichki boshqaruv hisobotini shakllantirish tartibi ishlab chiqilgan;

ichki boshqaruv hisoboti tahliliy ma'lumotlarini shakllantirish bo'yicha barcha me'yoriy hujjatlarni shaklda keltirilgan standarti taklif etilgan;

qurilish loyihasiga jalb etiladigan investitsiya loyihasi bo'yicha tannarxni aniqlash usuli loyihaaning narxini aniqlashda, qurilish tugagandan so'ng obyektni ishlatishdan kutilayotgan daromad, ijara, ko'chmas mulkni sotish yoki boshqa moliyaviy imtiyozlarni hisobga olish tartiblarini kiritish orqali takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar, rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar, tadqiqotda qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirishga doir ma'lumotlarning asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar hamda "Nokis Isker" MChJ, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi rasmiy ma'lumotlari, shuningdek, taklif va tavsiyalarning qurilish tashkilotlari tomonidan boshqaruv hisobini takomillashtirishda foydalanilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy tadqiqot ishida ishlab chiqilgan nazariy tavsifdagi xulosa va takliflardan qurilish tashkilotlarining boshqaruv hisobini takomillashtirish jarayonida ularning faoliyatidagi eng muammoli sohalarni aniqlash, resurslarni to'g'ri boshqarish va xarajatlarni kamaytirish zaxiralarini o'rnatish, qurilish loyihalarining samaradorligini oshirish uchun ilmiy-uslubiy qoidalar tizimini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan amaliy takliflardan qurilish tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga to'g'ri baho berish, foydani oshirish va rentabellikni ko'tarish bo'yicha mavjud ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash orqali ularning moliyaviy holati barqarorligi va shaffofligini ta'minlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

qurilish tashkilotlari boshqaruv hisobi tizimini an'anaviy tarzda foydalaniluvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik, ijtimoiy va korporativ omillar, biznesning barqarorligini va uning atrof-muhitga ta'sirini baholash usulini joriy qilish orqali takomillashtirish bo'yicha taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 13-martdagi №01-07/01-717-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash, balki bugungi kunda muhim raqobatdosh ustunlikka aylanib borayotgan ekologik va ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini yaxshilash, yashil buxgalteriya hisobini joriy etish orqali qurilish tashkilotlari o'z faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini yaxshiroq baholash imkonini bergan;

qurilish tashkilotlari faoliyatida yuzaga keluvchi bilvosita xarajatlarni turli bo'limlar yoki faoliyat toifalari bo'yicha taqsimlashda "Umumiy xarajatlar" schyoti bo'yicha kompaniyaning umumiy rentabelligiga bilvosita xarajatlarning ta'sirini baholash orqali ko'p bosqichli tahliliy hisob tizimini ishlab chiqish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 13-martdagi №01-07/01-717-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xarajatlarni biznesdan kelayotgan daromadga ta'sirini baholash, bilvosita xarajatlarni turli bo'limlar yoki faoliyat toifalariga taqsimlash orqali xarajatlarni batafsil nazorat qilish va tahlil qilish imkonini bergan;

qurilish tashkilotlarida xarajatlarni boshqaruv hisobining kompleks tartibi xarajatlarning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita bo'linishi hamda qurilish loyihasining bosqichiga (rejalashtirish, loyihalash, qurish, ishga tushirish) muvofiq holda ularni batafsil taqsimlash asosida takomillashtirish taklifi. Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 13-martdagi №01-07/01-717-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida quruvchilarga loyihalarni yanada samarali boshqarish, ortiqcha xarajatlarni aniqlash va ularni minimallashtirish uchun o'z vaqtida choralar ko'rish imkonini bergan;

qurilish tashkilotlarining boshqaruv hisobi tizimiga obyektlarning hayot sikli tannarxini baholashga asoslangan, obyektни ekspluatatsiya qilish, uni eskirish va foydalanishdan chiqarish jarayonida foydalanish xarajatlarini ham hisobga olish asosida tannarxni hisoblashda hayot sikli xarajatlarini hisoblash konsepsiyasini takomillashtirish bo'yicha taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 13-martdagi №01-07/01-717-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida har bir bosqichda nafaqat xarajatlarni samarali hisobga olish, balki xavflarni, barqarorlikni, raqamli texnologiyalarni va prognozlashni hisobga oladigan xarajatlarni boshqarishning yangi usullarini joriy etish orqali mahsulot yoki loyiha ning hayot siklining bosqichlarini hisobga olgan xarajatlarni tahlil qilish, optimallashtirish va prognozlashning chuqurroq integratsiyalash imkoni yaratilib, bu moliyaviy samaradorlikni sezilarli darajada oshirgan va loyihalar bilan bog'liq xavflarni kamaytirgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan hamda ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 3 ta ilmiy ish, shu jumladan, mahalliy OAK e'tirof etgan jurnallarda 2 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olgan. Dissertatsiyaning hajmi 144 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti, predmeti va usullariga tavsif berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobat-siyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda qurilish korxonalarining tutgan o'rni va o'ziga xos jihatlari, boshqaruv hisobini rivojlanish bosqichlari va nazariy asoslari, boshqaruv hisobini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari va xorij tajribasi yoritilgan. O'zbekiston qurilish tarmog'i kompaniyalarining dinamikasi va tarkibi tahlil qilingan.

Qurilish sanoatining hal qiluvchi o'rni mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Qurilish moddiy ishlab chiqarishning bir tarmog'i sifatida uni boshqa tarmoqlardan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarga ega. Sanoatning o'ziga xos xususiyatlari uning yakuniy mahsulotining tabiati, o'ziga xos ish sharoitlari, ishlatiladigan asbob-uskunalarining bir qator o'ziga xos xususiyatlari, texnologiyasi, ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqaruv va logistika bilan izohlanadi.

Qurilayotgan obyektlar va ularning maqsadidan qat'i nazar, butun qurilish sanoatiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: qurilish ishlab chiqarishining o'zgaruvchanligi, bir xilligi va yakuniy mahsulotning tabiati; qurilish jarayoniga kiritilgan barcha operatsiyalarning texnologik o'zaro bog'liqligi; oy davomida qurilish-montaj ishlarining murakkabligi va turlari bo'yicha nisbatlarining nomuvofiqligi; yakuniy qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarishda turli tashkilotlarning ishtiroki; qurilish ishlarida iqlim va mahalliy sharoitning ahamiyati.

Qurilishning o'ziga xos xususiyatlari qurilayotgan obyektlarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Bularga: sanoat, uy-joy, ijtimoiy, transport, qishloq, melioratsiya va suv xo'jaligi obyektlari, magistral quvurlar, elektr tarmoqlari kiradi.

Qurilish sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishi sifatida milliy iqtisodiyot tarmoqlari orasida barqaror o'sish sur'atlarini qayd etayotgan sohalar-dan hisoblanadi. Turar joy majmualarini, ijtimoiy soha va muhandislik infratuzilma obyektlarini qurish va kapital rekonstruksiya qilish, shuningdek, sanoatning bazaviy tarmoqlari korxonalarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida qurilish ishlari hajmi 2020-yilda 16739,7 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 27564,6 mlrd so'mni tashkil etgan, 2024-yilda qurilish ishlari hajmi 31058,8 mlrd so'mni tashkil etgan. (1-rasm).



**1-rasm. Bajarilgan qurilish ishlari kesimida o'sish sur'atlari<sup>6</sup>.**

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 70,4% i yoki 105 489,2 mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turarjoy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Qurilishda boshqaruvni tashkil etish qurilishning o'ziga xos jihatlarni ajratib olish maqsadga muvofiq. Qurilish jarayonini uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. Qurilishni tayyorlash.
2. Qurilishni amalga oshirish.
3. Qurilish mahsulotlarini sotish – qurilish loyihalarini foydalanishga topshirish va asosiy vositalar sifatida buyurtmachiga topshirish. Qurilishni boshlashga tayyorgarlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi (2-rasm).

Qurilish maydonchasida qurilish jarayonining barcha texnologik elementlari aloqaga kirishib, ularning ishlashi natijasida qurilish mahsulotlari yaratiladi.

Bu bosqichda umumiy qurilish xarajatlari, bino va inshootlarning moddiy va nomoddiy elementlari, ularning arxitekturasini, ifodaliligi va sifati shakllanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qurilish tashkilotlari faoliyatiga quyidagi beqarorlashtiruvchi omillar ta'sir ko'rsatadi:

soliq tizimini investitsiya muhitini rag'batlantirmasligi;  
investitsion jozibadorlikning yo'qligi, o'z navbatida, bank sektorining qurilish industriyasini uzoq muddatli kreditlash (yuqori foiz stavkalari) sohasiga qiziqishining pastligiga olib keladi;


qurilish sohasini tartibga solishning qonunchilik bazasi mukammal emasligi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarning aniq yagona tizimi mavjud emas, ba'zi qoidalar va qoidalar eskirgan va zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda yangilanishi kerak;

qurilish sohasida yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligiga olib keladigan ixtisoslashtirilgan ta'lim sifatining pasayishi ham muhim muammo hisoblanadi;

mahalliy asbob-uskunalar deyarli ishlab chiqarilmaydi, mavjud uskunalar esa zamonaviy talablarga javob bermaydi, bu esa xorijiy ishlab chiqaruvchilardan uskunalar xarid qilish zaruratiga olib keladi. Mahalliy qurilish materiallari bozori,

<sup>6</sup> Manba: Statistik ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi (<https://stat.uz/uz/nashrlar-menu/infrografikalar>).

ayniqsa, innovatsion xususiyatga ega bo'lmagan, bu bozorda xorijda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ustunligiga ham olib keladi. Bularning barchasi birgalikda qurilish materiallari narxining oshishiga va yakuniy mahsulotning yuqori narxiga olib keladi.



**2-rasm. Qurilish ishlariga tayyorgarlik jarayoni<sup>7</sup>.**

Shuningdek, qurilish materiallari, konstruksiyalari va ularning elementlarini ishlab chiqarish, shuningdek, xavfsizlik, yuqori sifatli ishlash ko'rsatkichlari va mustahkamlik xususiyatlari bo'yicha zamonaviy talablarga javob berishi kerak.

Bizning fikrimizcha, shuningdek, raqobatda faoliyat yuritish uchun qurilish sanoati bozor shartlarini bajarishi maqsadga muvofiq: shartnoma majburiyatlarini qat'iy bajarish va huquqiy me'yorlarga rioya qilish; qurilish tashkilotlari faoliyati uchun iqtisodiy jihatdan qulay shart-sharoitlarni ta'minlash (rentabellikni oshirish); ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sug'urtalash, ularning sifati va ishlash xususiyatlarini yaxshilash; tashkilotlarning o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvini oshirish; pudratchi tashkilotlarning ishonchliligi va iqtisodiy to'lov qobiliyati kafolati; pudratchilar ishonchliligi kafolati sifatida kafolatlar va garovlar tizimi; ekologik resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy muhitni muhofaza qilish; qurilish ishlari davomida xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash.


Tahlillarimiz ko'rsatyaptiki, aksariyat qurilish tashkilotlari hali ham raqobat va sanoat rivojlanishining zamonaviy davrida tamoyillari eskirgan boshqaruv hisobi amaliyotlaridan foydalanadilar. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalari ishlab chiqish zarur, bu esa uning amaliyotini rejalashtirish, byudjetlashtirish va tahlil qilishning strategik texnologiyalari bilan to'ldiradi.

Boshqaruv hisobi obyektlarini korxona axborot tizimida aks ettiruvchi turli texnika va usullar majmuyi boshqaruv hisobining usuli hisoblanadi. Quyidagi

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi.

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, usulning elementlari alohida holda emas, balki korxonaning ichki xo‘jalik munosabatlarini tashkil etish tizimida buxgalteriya hisobi muammolarini hal qilishga qaratilgan bo‘lib, bu boshqaruv hisobining asosiy maqsadiga erishishga yordam beradi. Tadqiqot ishida nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki ekologik, ijtimoiy va korporativ omillar, biznesning barqarorligini va uning atrof-muhitga ta‘sirini baholash usulini joriy qilish orqali boshqaruv hisobi tizimi ishlab chiqilgan 3-rasm.

Mamlakatimizda faoliyat yurituvchi qurilish tashkilotlarining aksariyat direktorlari va moliyaviy xizmatlari rahbarlari boshqaruv hisobini to‘g‘ri qo‘llashning haqiqiy afzalliklarini, ayniqsa unga yetarlicha e‘tibor bermaydigan raqobatchilarga nisbatan to‘liq tasavvur qilmagan va hali ham to‘liq tasavvur qilmaydi.



**3-rasm. Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi tizimi<sup>8</sup>.**

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi.

Bu ko‘pincha biznesni rivojlantirishda boshqaruv tomonidan odatda boshqa muammolarga ko‘proq e‘tibor berilishi bilan bog‘liq: turli sxemalardan foydalanish hisobiga soliq yukini kamaytirish; individual shaxslar uchun tuzilmalarni yaratish; mahsulotni batafsil hisobga olish tizimini joriy etishda kechikish bilan sotish hajmining o‘ssishi; tor geografik yoki ishlab chiqarish ixtisoslashuviga ega bo‘lgan muayyan miqdordagi yuridik shaxslarni ochish yoki sotib olish; buxgalteriya hisobi va soliq hisobini rivojlantirish.

Bu muammolarni hal qilish uchun mas‘uliyat korxona rahbariyatiga tushadi. Qurilish korxonalari bo‘yicha tahlillardan ko‘rish mumkinki, an‘anaviy usullardan foydalangan holda, qisqa vaqt ichida asosli optimal yechimni taklif qilish, korxonaning ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining muvozanatli, ichki izchil rejasini tuzish muammoli. Kerakli tuzatishlarni amalga oshirish yanada qiyinroq.

Bundan tashqari, avtomatlashtirilmagan rejalashtirish turli xil xatolar, noaniqliklar va ko‘rsatkichlarning nomuvofiqligi olib keladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, aksariyat korxonalarda qo‘llaniladigan rejalashtirish usullari faqat aniq ijrochilarning bilimlari va sezgilariga asoslanadi va juda ko‘p miqdordagi hujjatlardan foydalanishga tayanadi, ular faqat moddiy oqimlarning intensivligini aks ettiradi.

Shu bois zamonaviy sharoitda boshqaruv hisobini tashkil etishda tajribaga ega bo‘lgan va uni moliyaviy tahlil, buxgalteriya hisobi, soliq tizimi, xalqaro buxgalteriya tamoyillari, axborot tizimlarining tarkibiy xususiyatlari bo‘yicha bilimlar bilan uyg‘unlashtirgan yuqori malakali mutaxassislarni izlash, tanlash va jalb etish juda muhim.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini tashkil etish amaliyoti va uslubiy asoslari”** deb nomlanib, qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobining o‘ziga xos jihatlari, boshqaruv hisobining tuzilmaviy tartiblari, vositalari va usullari, qurilish tashkilotlarida xarajatlar hisobini tashkil etishning uslubiy asoslari, boshqaruv hisobi tizimida korxona moliyaviy holatini tahlil va nazorat qilishning amaliy holati kabi masalalar ko‘rilgan.

Ayni vaqtda yurtimizda 13 mingga yaqin qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritmoqda. O‘tgan yillarda 120 turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 180 tadan oshib ketdi. Ta’kidlash kerakki, qurilish sanoati xususan qurilish materiallarini ishlab chiqarishga investitsiyalarni keng jalb etish orqali mahsulot turlarini ko‘paytirish va sifatni oshirishga, eng muhimi bugungi kundagi ustuvor vazifa aholini ish bilan ta’minlash kabi vazifaning ijrosini ta’minlash mumkin. Quyidagi jadvalda Respublikamizda Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi keltirilgan (1-jadval).

**1-jadval**

**Respublikamizda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari  
hajmi<sup>9</sup> (mlrd so'm)**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>	<b>2024</b>
Bino va inshootlar qurilishi	51232,5	65677,5	75339,7	93504,8	105509,1
Fuqarolik qurilishi obyektlari	11376	13949,5	23814,2	27638,5	29252,2
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	8548	8503,3	8338,8	9647,6	16031,3

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2020-yilga nisbatan 2024-yilga kelib bino va inshootlar qurish hajmi 2 baravarga oshgan. Fuqarolik qurilish obyektlari va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi ham 2 baravarga oshgan.

Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobi obyektlarining farqi bajarilgan ishlar hajmi, kompaniyaning hajmi, uning ixtisoslashuvi (masalan, turarjoy qurilishi, sanoat qurilishi, infratuzilma loyihalari va boshqalar) kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan qurilishda iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun turli ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin, jumladan, ishlarning alohida bosqichlari yoki turlari uchun xarajatlarni hisoblash (masalan, qazish ishlari, montaj ishlari), loyihaning borishini aks ettiruvchi olingan qiymat ko'rsatkichlari hamda nazorat xarajatlari bilan taqqoslanadigan va og'ishlarni aniqlaydigan standart va haqiqiy xarajatlar. Bu omillar qurilish kompaniyalaridan har bir obyekt va loyihaning alohida bosqichlari bo'yicha xarajatlarni monitoring qilishga e'tibor qaratgan holda boshqaruv hisobiga moslashuvchan yondashuvni talab qiladi.

Ta'kidlashimiz kerakki, boshqaruv hisobining yagona tashkiliy-metodik tizimi mavjud emas, chunki qurilish tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarining xilma-xilligi, ularning texnik jihozlari va boshqaruv ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyoji turli metodologiyalardan foydalanishga olib keladi. Mavjud boshqaruv hisobi tizimini samarali qayta tashkil etish va moslashtirish uchun uni diagnostika qilish zarur, bu qurilish tashkilotida samarali boshqaruvning maqsad va vazifalariga muvofiq joriy tizimni tan olish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan, tadqiqot ishimizda "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi da boshqaruv hisobi tizimini diagnostika qilish asosida ushbu tizimni yaratishning operativ, taktik va strategik darajalarini ko'rib chiqilib va uni amalga oshirish darajalari belgilab berildi.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasiga a'zo qurilish korxonalarda boshqaruv hisobining umumiy tizimi amal qilmaydi, balki tashkilotni boshqarishda buxgalteriya hisobi va tahliliy ta'minot bilan bog'liq boshqaruv hisobi metodologiyasining alohida bloklarinigina joriy qildi.

Bunday holatda tegishli korxonaga boshqaruv hisobining to'liq tizimini joriy etish uchun bir nechta yo'nalishlarni taklif etamiz:

<sup>9</sup> Stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi (12.09.2024-yildagi sayt ma'lumoti).

*xodimlarni tayyorlash:* Xodimlar uchun boshqaruv hisobi bo'yicha seminar va treninglar o'tkazish. Bu ularning malakasini oshirishga va ushbu texnikaning ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

*tizim integratsiyasi:* Buxgalteriya hisobi va tahliliy ma'lumotlarni birlashtirgan hamda loyihalar va resurslarni yanada samarali boshqarish imkonini beruvchi yagona axborot tizimini ishlab chiqish.

*mavjud jarayonlarni tahlil qilish:* joriy boshqaruv jarayonlarini baholash va boshqaruv hisobi orqali yaxshilash mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash.

*tajriba loyihalarini amalga oshirish:* ularning samaradorligini baholash uchun alohida bo'limlarda boshqaruv hisobini joriy etish bo'yicha kichik tajriba loyihalarini amalga oshirish.

*xodimlarning fikr-mulohazalari:* Boshqaruv hisobining qaysi jihatlari eng muhim va foydali ekanligini tushunish uchun xodimlardan fikr va takliflarni to'plash.


Tadqiqot davomida "Umumiy xarajatlar" moddasiga kiritilgan xarajatlar ro'yxati, shuningdek, faoliyat turlari qo'shimcha xarajatlar (bilvosita) xarajatlarning ayrim turlarini to'g'ridan-to'g'ri tasniflash imkoniyatini aniqlash uchun pudratchi tashkilotning tahlili o'tkazildi. Qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish me'yori, hisob va nazoratni soddalashtirishga yordam beradi. Bu usulga ko'ra amalga oshirilgan ishlar natijasida pudratchining bilvosita xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar sifatida tasniflash taklif etildi.

Bizning fikrimizcha, qaysi xarajat omillari har bir faoliyat turiga taalluqliligini aniqlaganimizdan so'ng va har bir aniq obyekt uchun ularning hajmini, shuningdek, xarajat birligining narxini (masalan, ish vaqti yoki boshqa resurslar) aniqlash zarur, so'ngra bilvosita xarajatlarni taqsimlashga o'tish mumkin.

Boshqaruv hisobi maqsadlarida "Umumiy xarajatlar" hisobvarag'i bo'yicha ko'p bosqichli tahliliy hisoblar tizimi pudratchilarning umumiy xarajatlarini aniqroq hisobga olish uchun mo'ljallangan. Bu korxona miqyosida umumiy xarajatlarni yanada aniqroq toifalarga ajratish imkonini beradi, bu esa xarajatlarni yaxshiroq tahlil qilish va nazorat qilish imkonini beradi. Bizning taklifimiz bo'yicha tizimning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat (4-rasm).

Umuman olganda, bunday tizim umumiy biznes xarajatlarini yanada samarali boshqarishga va tashkilotda moliyaviy shaffoflikni oshirishga yordam beradi.

Qurilish sohasida boshqaruv faoliyatini tashkil etish va xarajatlarni hisobga olishning innovatsion yondashuvlari va usullarini sinovdan o'tkazishning cheklanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham qurilishda boshqaruv hisobi usullarini tanlashda sanoatning o'ziga xos xususiyatlarini va xarajatlari hisobga olishdagi mavjud to'siqlarni hisobga olish muhimdir. Qurilishda xarajatlar hisobiga ta'sir etuvchi omillardan biri bu sohaga kiritilayotgan innovatsiyalar hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish katta investitsiyalarni talab qiladi, shuning uchun investitsiyalarning uzoq muddatli rentabelligini baholashga imkon beradigan usullardan foydalanish muhimdir.



**4-rasm. Bilvosita xarajatlarni taqsimlashning “Umumiy xarajatlar” schyoti bo'yicha ko'p bosqichli tahliliy hisob tizimini asosiy jihatlari<sup>10</sup>.**

Qurilish xarajatlarini maqsadli, tizimli boshqarish mexanizmini shakllantirish va qurilish sanoati bilan shug'ullanadigan tashkilotlarning xarajatlarini boshqarish va axborot bazasini yaratish qurilish mahsulotlarining hayot aylanishi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu sohada xarajatlarni samarali boshqarish barcha bosqichlarni – loyihalashdan tortib to ekspluatatsiya gacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladigan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Shunga ko'ra qurilish tashkilotlarining boshqaruv hisobi tizimiga obyektlarning hayot sikli tannarxini baholashga asoslangan, obyektни ekspluatatsiya qilish, uni eskirish va foydalanishdan chiqarish jarayonida foydalanish xarajatlarini ham hisobga olish asosida tannarxni hisoblashda hayot sikli xarajatlarini hisoblash konsepsiyasi ishlab chiqilgan (2-jadval).

<sup>10</sup> Muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan.

**Qurilish mahsulotlarining hayot aylanishining tarkibiy qismlari  
o'rtasidagi munosabatlar<sup>11</sup>**

Qurilish mahsulotlarining hayot aylanish bosqichlari						
Joriy etish		O'sish		Yetuklilik		Turg'unlik
Qurilish fazalari						
Tayyorgarlik		Investitsiya kiritish		Ishlab chiqarish		Ekspluatatsiya
Qurilish bosqichlari						
Dastlabki tayyorlov	Loyihalash dan oldin	Loyihalash	Yetkazib berish bosqichi	Qurilish bosqichi	Ishga tushirish bosqichi	Obyektni ekspluatatsiya qilish bosqichi
Bosqich tavsifi						
Loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar va shart-sharoitlarni tahlil qilish	Obyektni qurilish loyihasini ishlab chiqish	Tog'ridan to'g'ri loyihalash va qo'shimcha hujjatlarni tayyorlash	Moddiy, mehnat va axborot resurslari bilan ta'minlash	Qurilish, montaj va pardoqlash ishlarini bajarish	Qurilish ishlarni topshirish va uni qurilishni hisobga olish uchun xizmat ko'rsatuvchi kompaniyaga ma'lumot taqdim etish	Qurilish obyektidan foydalanish

Qurilish mahsulotlarining hayot aylanishi qurilish obyektlarini yaratish, ishlatish, texnik xizmat ko'rsatish va yo'q qilishning butun jarayonini o'z ichiga olib, u loyihalash va qurishdan tortib foydalanish va demontaj qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Hayotiy siklning har bir bosqichida boshqaruv hisobining turli usullaridan foydalanish xarajatlarni yanada samarali nazorat qilish va moliyaviy natijalarni yaxshilash imkonini beradi.


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Qurilish tashkilotlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlanib, qurilish tashkilotlarida xarajatlarni boshqaruv hisobini uslubiy jihatlarini takomillashtirish, boshqaruv hisobi va ichki boshqaruv hisoboti tizimini axborot bilan ta'minlash hamda qurilish ishlab chiqarishining tannarxini hisoblashni o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan.

Xarajatlarni hisobga olish usullarini to'g'ri tanlash qurilish-montaj ishlarining tannarxini shakllantirishning to'g'riligiga, shuningdek narxlash jarayoniga bevosita ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida qurilish loyihalarini amalga oshirishning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Bizning fikrimizcha, tannarxni hisoblash usullari bilan bir qatorda qurilish tashkilotlari uzoq muddatda (strategik barqarorlik) uzluksiz ravishda barqaror ishlashini ta'minlash uchun xavfga nisbatan sezgirlikni (moyillik, sezgirlik) aniqlashi kerak. Buni aniqlashda risk o'zgarishi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari to'plami shaklida risklarni boshqarish strategiyasi bilan belgilanishi kerak. Qurilish tashkiloti xavfga sezgirlik ko'rsatkichlarini mustaqil ravishda tanlashi va qurilish loyihasining yakuniy moliyaviy natijasiga yoki umuman tashkilot faoliyatiga turli omillarning ta'sir darajasini aniqlash uchun sezgirlikni tahlil qilishi kerak. Tahlil qilishda ham tashqi ham ichki omillar ta'sirini baholash talab etiladi. Birinchi navbatda, loyihalar kesimida ishni tashkil etilishini asos qilib olib, qurilish zaxiralarini aniqlash hamda ishni tashkil etishda qurilish qoidalariga amal qilinganligini tahlil qilish kerak.

<sup>11</sup> Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi fikrlarimiz asosida xarajatlar hisobini uslubiy jihatdan takomillashtirish uchun biz qurilish xizmatlari tannarxini hisoblashga mahsulotning hayotiy sikli konsepsiyasiga muvofiq tashkil etishni taklif qilamiz (5-rasm).



### 5-rasm. Qurilish tashkilotida loyihaning hayot aylanish bosqichlari<sup>12</sup>.

Taklifimga muvofiq qurilishda xizmat ko'rsatish hayot aylanishini tashkil etishda qurilishning xususiyatlarini, obyektni sotish, xizmat ko'rsatishdagi daromad va xarajatlardagi dinamik o'zgarishlarni hisobga olishda shartnoma shartlariga, xizmat turiga, qurilish bozoridagi sharoitlarga qarab 5-rasmda keltirilgan ketma-ket bosqichlarda amalga oshirishni taklif etamiz.

5-rasmda ko'rsatilgan bosqichlarning har biri, o'z navbatida, zarur resurslar (moliyaviy, moddiy, mehnat, axborot va boshqalar) bilan ta'minlashni o'z ichiga olgan turli xil ish turlaridan iborat.

Qurilish tashkilotlarida xarajatlar hisobini tashkil etishda byudjetlashtirish ham alohida ahamiyatga ega. Byudjetlashtirish aynan xarajatlarni nazorat qilish, rejalashtirish va moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish uchun muhim vositadir. Tadqiqot ishimizda oldingi davr ma'lumotlari va standart koeffitsiyentlar asosida ish, material yoki mehnat birligi uchun o'rtacha xarajatlarni hisoblash usulini hamda qurilishni boshqarish tizimini integratsiya qilish orqali qurilish tashkilotlari uchun byudjetlashtirish metodikasi ishlab chiqilgan.

Qurilish tashkilotining ichki boshqaruv hisobotini shakllantirish jarayoni boshqaruv hisobi tizimida amalga oshiriladi. Boshqaruvning turli darajalarida uning uslubiy jihatdan axborot ta'minoti, prognozlash, hisobga olish, innovatsiyalar bo'yicha hisobga taalluqli bo'lgan hamda taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun yagona talablarni nazarda tutadi.

Qurilish tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishni boshqarish tizimida ichki boshqaruv samaradorligini baholashning muhim va asosiy mezonini tashkilotning belgilangan strategik maqsadlariga erishish bo'lishi kerak. Bularning barchasi faqat uchta asosiy bosqichdan iborat qurilish tashkilotning innovatsiyalari to'g'risida ichki boshqaruv hisobotini shakllantirish metodologiyasi mavjud bo'lganda maqsadga muvofiq bo'ladi 6-rasm.

<sup>12</sup> Olib borilgan tadqiqotlar natijasida muallif takliflari asosida ishlab chiqilgan.

**1-bosqich  
TAYYORGARLIK**

*1-Qadam.* Faoliyat strategiyasini shakllantirish.  
Namunaviy ichki boshqaruv hisobotini ishlab chiqishda maqsad va vazifalarni belgilash. Ichki boshqaruv hisobotiga asosiy talablarni shakllantirish

*2-qadam.* Ichki boshqaruv hisoboti konsepsiyasini ishlab chiqish.  
Ichki boshqaruv hisoboti ob'ektlarini aniqlash. Boshqaruv hisobini tashkil etishga qarab ichki boshqaruv hisobotini shakllantirish modelini tanlash (avtonom, integratsiyalashgan, aralash)

**2-bosqich  
HISOBOT  
TAYYORLASH**

*3-Qadam.* Ichki boshqaruv hisoboti to'plamini shakllantirish.  
